

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O‘G‘LI

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA
MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI OLDINI OLISHNING TASHKILIY-
HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Maxmudov Firuz Baxtiyor o‘g‘li

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

Makhmudov Firuz Bakhtiyor ugli

Improving the organizational and legal basis for preventing Conflict of interest in the activities of State Civil Servants.....35

Махмудов Фируз Бахтиёр угли

Совершенствование организационно-правовой базы предотвращения конфликта интересов в деятельности государственных гражданских служащих.....63

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

List of published scientific works

Список опубликованных научных работ.....68

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA
MANFAATLAR TO'QNASHUVINI OLDINI OLIHNING TASHKILIY-
HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Yu310 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Davlyatov Valisher Xakimjanovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Asadov Shavkat G‘aybulloyevich
yuridik fanlar doktori, professor

To‘xtasheva Umida Abdilovna
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1390-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 8-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 8-maydagi 22-son reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

S.B.Yusupov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ijtimoiy munosabatlar doirasi o'zgarib, zamonaviy ko'rinish olayotgan, iqtisodiy manfaatlar tobora ustuvorlik kasb etib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Amalga oshirilgan huquqiy islohotlar natijasida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning fundamental huquqiy asoslari yaratilib, davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyat samaradorligi oshirilayotgan bo'lsa, bugungi kunda mavjud huquqiy asoslarni samarali ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish va manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. 2024-yilda Korrupsiyani qabul qilish indeksida to'plangan ball pasayib, O'zbekiston 180 ta davlat orasida 121-o'rinni egalladi. So'nggi besh yilda "Korrupsiyaning mavjud emasligi" ko'rsatkichida O'zbekiston 23 pog'ona yuqori ko'tarilib, 2023-yilda 140 ta mamlakat orasida 66-o'rinni egallagan, Markaziy Osiyo mintaqasida bu yo'nalishda sezilarli ijobiy ko'rsatkichga erishilgan bo'lsa-da, 2024-yilda 6 ming 898 nafar shaxs tomonidan 5 ming 716 ta korrupsiya jinoyati sodir etilgan. Birgina davlat xaridlari sohasida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish natijasida 11,6 mlrd. so'm miqdorda zarar yetkazilgan¹. Yuqorida keltirilgan omillar davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan samarali tashkiliy-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahonda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida "ochiqlik siyosati"ni kuchaytirish, "aqli boshqaruv", "manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha aniq davlat siyosati" va "raqamli tartibga solish" konsepsiyalarini joriy qilish, har bir mamlakatning rivojlanish darajasi va huquq tizimidan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berganlarning huquqiy himoyasini ta'minlash, davlat fuqarolik xizmatchilarining munosib xulq-atvorini shakllantirish, shuningdek manfaatlar to'qnashuvi ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga ham ilmiy, ham amaliy xarakterga ega muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda samarali davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish, uning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlash, davlat fuqarolik xizmatchilarining yangi, zamonaviy korpusini shakllantirish borasida qator islohotlar olib borildi, ixcham va natijadorlikka asoslangan davlat boshqaruv mexanizmlari yaratildi. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilib, unga qarshi davlat va jamiyatning bevosita munosabati shakllandi. Shu bilan bir qatorda, aholi farovonligi yildan yilga yaxshilanib, iqtisodiy muammolar bosqichma bosqich hal qilinayotganiga qaramasdan shaxsiy manfaatdorlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklar – poraxo'rlik, manfaatlar to'qnashuvi, lobbizm, korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishi davom etmoqda. Mazkur

¹ <https://anticorruption.uz>

huquqbuzarliklarning sodir etilish va yuzaga kelish shakllari, turlari, ko‘rinish va xarakterining turlicha bo‘lib borishi muammoni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va huquqiy tartibga solish zaruratini kuchaytirmoqda.

Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish, jumladan, Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan e‘lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish, 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta‘minlash ustuvor vazifa etib belgilangan².

Alohida e‘tirof etish lozimki, so‘nggi yillarda tadqiqot obyekti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan maxsus – “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi hamda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinib, tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va unga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat fuqarolik xizmati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta‘minlashi, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha choralar ko‘rishi konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Yangi konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitda davlat xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga oid qonunchilik tizimini modernizatsiya qilishda shu kabi ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (2017), “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi (2022), “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi (2024) “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi (2018) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son (2019), “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son (2019), “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son (2021), “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-son (2023), ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son (2023) farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

to‘g‘risida”gi PQ–4472-son (2019), “Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–81-son (2022), “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–240-son (2022), “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–210-son (2024) qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda dunyo ilm va ta‘lim markazlari, ilmiy izlanuvchilarning mustaqil tadqiqot obyektiga aylangan. Jumladan, Garvard universiteti (AQSH), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Texas va Dallas universiteti (AQSH), Dalhousie universiteti (Kanada), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Kaliforniya Lutheran universiteti (AQSH), Santa Klara universiteti qoshidagi Markkula amaliy etika markazi (AQSH), Komenius universiteti (Slovakiya) va boshqa dunyo bo‘ylab yuzlab ta‘lim muassasasi va ilmiy tadqiqot markazlarida, Rossiyaning qator nufuzli universitetlari va aql markazlarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq qilinmoqda.

Xususan, Kaliforniya Lutheran universitetida (AQSH) manfaatlar to‘qnashuvining moliyaviy manfaatlar bilan bog‘liqligi masalasi tahlil etilib, uni oldini olish uchun ta‘lim mexanizmlarini joriy etish yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazilgan³. Santa Klara universiteti qoshidagi Markkula amaliy etika markazida (AQSH) esa davlat xizmatchilari faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvi mazmunini aniqlashga ustuvorlik qaratilib, manfaatlar to‘qnashuvini davlat mansabdor shaxslarining shaxsiy yoki moliyaviy manfaatlar bilan jamoat manfaatlariga xizmat qilish majburiyatlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelishida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan⁴. Komenius universiteti (Slovakiya) tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda asosiy e‘tibor davlat xaridlari tizimidagi manfaatlar to‘qnashuvi masalasiga qaratilib, Yevropa Ittifoqidagi 250 000 dan ortiq davlat organlari har yili xizmatlar, ishlar va materiallarni sotib olishga YIMning 14 foizini (taxminan 2 trillion yevro) sarflashi, shu sababli, qonuniy davlat xaridlarini ta‘minlashda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va bartaraf etish davlat mablag‘lari samaradorligini ta‘minlashda asosiy vosita ekanligi bo‘yicha ilmiy xulosalar olingan⁵. Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya) olimlari tomonidan esa manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun u bilan bog‘liq real huquqiy nizo sodir bo‘lgan yoki yo‘qligini aniqlash mumkin emasligini, sodda qilib aytganda, holat huquqiy oqibat keltirib chiqargan yoki chiqarmasligini kutib turish shart emasligini, oldindan

³<https://www.callutheran.edu/research/rpo/conflict-of-interest/>

⁴John Pelissero, Five Common Conflicts of Interest in Government and How to Prevent Them. 2023, <https://www.scu.edu/government-ethics/resources/five-common-conflicts-of-interest-in-government-and-how-to-prevent-them/>

⁵JUDr. PhD, Comenius University in Bratislava, Slovakia, e-mail: hana.kovacikova@flaw.uniba.sk, ORCID ID:<https://orcid.org/0000-0002-4158-0924>.

profilaktika bo‘lishi kerakligi bo‘yicha ilmiy tadqiqot xulosalariga kelingan⁶. Garvard universiteti (AQSH) tadqiqotlari natijasida esa manfaatlar to‘qnashuvi toifasi va uning tartibga solinishi so‘nggi 30 yilda keskin o‘zgarganligi, davlat huquqiy tartibga solish orqali katta natijalarga erishgan bo‘lsa-da, bugungi iqtisodiy rivojlanish nafaqat qonun ta’sir kuchi yordamiga, balki axloq ko‘magiga ham bog‘liqligi bo‘yicha ilmiy xulosalar olingan. Dalhousie universiteti (Kanada) tadqiqotlari mazmunida manfaatlar to‘qnashuvi holatini jamoatchilikka faol ravishda oshkor qilish yotadi. Unga ko‘ra aniq va shaffof tartib-qoidalar orqali bunday siyosatlar axloqiy qoidalarga rioya etilishini jamoatchilik tomonidan baholashning samarali vositasi hisoblanadi, chunki holatni ommaga oshkor qilish oldini olish va rag‘batlantiruvchi funksiyani bajarishi mumkin: jamoatchilik qanchalik ko‘p bilsa, axloqiy me‘yorlar shunchalik hurmat va nazorat qilinadi⁷.

Oksford universiteti (Buyuk Britaniya) tomonidan esa “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha aniq davlat siyosati” (*A Clear COI Policy*) konsepsiyasi ilgari surilib, tadqiqot natijasiga ko‘ra, shaxsiy munosabatlar (*Personal Relationships*), moliyaviy munosabatlar (*Financial Interests*), boshqa tashkilotda ishlash (*Outside Employment*) hamda sovg‘alar va mehmondo‘stlik (*Gifts and Hospitality*) kabi manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaruvchi asosiy munosabatlarni tartibga solish manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi⁸. Texas va Dallas universiteti (AQSH) tadqiqotlari natijasida manfaatlar to‘qnashuvi 3 ta katta yo‘nalishda – shaxsiy, moliyaviy va tashkiliy manfaatlar to‘qnashuvi kesimida tahlil qilingan. Uning mazmunida esa asosan manfaatlar to‘qnashuvini yagona klassifikatsiyaga solib bo‘lmasa-da, odatda shu 3 yo‘nalish takror sodir etilishi aytib o‘tiladi. Rossiyaning qator nufuzli universitetlari va aql markazlari tomonidan esa manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida amalga oshirilib, tadqiqot natijalari ham asosan korrupsion faktlarni bartaraf etish modellariga asoslanmoqda.

Dunyo ilmiy hamjamiyatida mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar “Davlat xizmatini amalga oshirishning 4 asosiy xulq-atvor standarti”, “Raqamli tartibga solish”, “Ichki tartibga solish va xabar berish”, “Jamoatchilik ishonchi”, “Ommaviy etika”, “Muammoni kompleks tartibga solish”, “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha aniq davlat siyosati”, “Ta’lim va hushyorlikni oshirish”, “Ochiq suhbat va ishonch” kabi modellar doirasida rivojlanmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishi” doirasida tayyorlangan bo‘lib, dissertatsiya “12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi” ixtisosligiga mos keladi.

⁶Stark, A. (2003). *Conflict of Interest in American Public Life*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

⁷Mark D. Jarvis & Paul G. Thomas, 2009, ‘The Limits of Accountability: what can and cannot be accomplished in the Dialectics of Accountability?’ Paper presented at Dalhousie University, Halifax, November 11-13, p. 11.

⁸Hawkins, K. O., & Miller, R. L. (2021). *Conflicts of Interest in the Professions*. Oxford University Press. 14(3), 317-340.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, shuningdek davlat boshqaruvi va davlat xizmatining konstitutsiyaviy va ma'muriy-huquqiy jihatlari bilan bog'liq tadqiqotlar F.X.Otaxonov, R.R.Hakimov, Sh.U.Yakubov, J.N.Ne'matov, B.I.Ismailov, M.Axmedshayeva, A.Saidov, A.Bekmurodov, A.M.Xoshimxonov, G.Murodullaeva, B.Axrarov, A.Bo'riyev, X.T.Azizov, B.Sh.Mirboboyev, X.S.Xayitov, E.T.Xojiyev, O.T.Xusanov, F.U.Yuldasheva, K.Tojiboyev, R.Zufarov, M.Rustambayev, G.Sattarov, A.Axrarov, N.Salayev, M.Kalandarova, N.Said-Gaziyeva tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, B.Mirboboyev, B.Alimov, X.Xayitov, Sh.Asadov, S.B.Yusupov tomonidan davlat boshqaruvi va mazkur jarayonda davlat xizmatining ayrim jihatlari nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lsa, E.T.Xojiyev, N.Sh.Said-Gaziyeva, B.Sh.Mirboboyev, X.T.Azizov, E.Bazarbay, U.Tojixanov, Sh.Y.Jo'rayev, A.A.Li, E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Raximovalar davlat xizmatini mustaqil kasbiy faoliyat sifatida tadqiq etganlar. Shuningdek, milliy olimlardan R.Hakimov, Sh.Yakubov, F.Otaxonov, E.Xojiyev, G.Ismailova, M.Raximova, B.Ismailov, J.Abdullayev, G.Nurmuxammedova, A.Dadasheva, B.Narimanov hamda M.Mamasiddiqovlar korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda jamoatchilik nazorati, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tahlil qilganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan B.M.Lazarev, A.P.Alexin, V.M.Manoxin, Y.A.Tixomirov, E.E.Duysenov, Y.M.Kozlov, A.V.Obolonskiy, Y.N.Starilovlar davlat xizmati bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilgan bo'lsalar, S.S.Frolov, A.Dementiev, A.G.Zdravomyslov, O.Panina, K.Xarchenko, N.Krasyukova, A.F.Nozdachev, A.K.Zaytsev, A.Ilyakov, D.Dedov, A.Solovev, N.Axmetova tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalalari atroflicha o'rganilgan.

Yevropa mamlakatlari olimlaridan esa Jose Vicente, C.R.Sunstein, R.Kerridge, R.S.Miller, K.O.Hawkins, D.Mark, Stark, Bryn Williams-Jones, A.Richard, Epstein, Dávid-Barrett, B.M.Dickens, R.J.Cook, M.Philp, P.F.Druker, V.Urey, J.Holliday, C.Veisman, X.Xekxauzen, B.Turvey, M.Florin, F.Zibold, H.James, V.Grib, G.Chebotareva, M.Shediy va boshqa olimlar manfaatlar to'qnashuvi borasida mustaqil ilmiy izlanishlar olib borganlar⁹.

Garchand ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida davlat boshqaruvi va davlat xizmati institutlari, ularda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalalari u yoki bu darajada tadqiq qilingan bo'lsa-da, mustaqil tadqiqot obyekti sifatida, jumladan, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish jihatlari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari kompleks tadqiqot asosida o'rganilmagan.

O'tgan yillarda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni va zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan kelib chiqib, ushbu amalga oshirilgan tadqiqot yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlarini yanada to'ldirishga, tadqiqot obyektining ma'lum darajada takomilga yetishiga xizmat qilgan.

⁹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy davlat boshqaruvi va davlat fuqarolik xizmatining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish;

manfaatlar to'qnashuvining yuridik tabiatini tushunish bo'yicha doktrinal qarashlarni o'rganish;

manfaatlar to'qnashuvining turli ko'rinishlarini tavsiflash, bu bo'yicha ilmiy yondashuv va tendensiyalarni tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan qonunchilik asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;

davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlarda manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asos va mexanizmlarini aniqlash;

manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal qilishda cheklov mexanizmini qo'llashning huquqiy jihatlarini o'rganish;

manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha vakolatli subyektlar hamda ularning huquq, majburiyat va faoliyat prinsiplarini tahlil qilish, manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ishlab chiqish;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish;

manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan odob-axloq va etika standartlari bilan bog'liq zamonaviy konsepsiya va modellarni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb tashkiliy-huquqiy muammolar, shuningdek ushbu faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, ularni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuv, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hamda mazkur

munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga oid masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning formal yuridik, tizimli va funksional tahlil, kuzatish, tarixiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslikni davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilash zarurligi asoslantirilgan;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga biron-bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtai nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlari ifoda etilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozimligi asoslab berilgan;

tashkilotlarning komplains nazorat bo‘linmalari (yoki ushbu vazifa yuklatilgan mas’ul shaxs) xizmat safariga yuborilgan xodimlarni manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarga yo‘l qo‘ymasliklari ustidan doimiy nazorat olib borishga mas’ul hisoblanishi asoslantirib berilgan;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlarini, shuningdek ularning aksiyalari yoki ulushlariga egalik qilayotgan yoxud tizimida ishlayotgan yuridik shaxslarni davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar sifatida belgilash lozimligi asoslab berilgan;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya tartibini joriy etish, deklaratsiyani taqdim etish tartibini qonunchilikda belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirishni tashkilotlardagi maxsus bo‘linmalar zimmasiga yuklash zarurligi asoslantirilgan;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish, o‘zini o‘zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish, lavozimiga teng boshqa lavozimga o‘tkazish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish kabi choralarni manfaatlar to‘qnashuviga oid holatlar yuz berganda qo‘llaniladigan choralar sifatida belgilash kerakligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash (KPI) bo‘yicha indikatorlarda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaganlik me‘zonini ham kiritish zarurligi asoslantirildi;

kadrlar bilan ishlashning yagona va yaxlit tizimini joriy etish, kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash, odob-axloq qoidalariga amal qilish va uning monitoringi, mehnatga haq to‘lashning adolatli va zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarurati asoslab berildi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining halollik darajasini baholaydigan Milliy halollik indeksini ishlab chiqish taklifi bildirildi;

davlat xaridlarida Insofsiz ijrochilar reestrini sifatli yuritish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxslarni ma’lum muddatlarda davlat xaridlarida qatnashishini cheklash amaliyoti taklif etildi;

“Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tasdiqlangan Korrupsiyani keltirib

chiqaruvchi omillarni aniqlash bo'yicha cheklist tajribasini davlat xizmatchilarining mehnat shartnomasi, vazifa va vakolatlardagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq risklarni aniqlashga tatbiq etish taklifi ilgari surildi;

faoliyati yo'lga qo'yilmagan davlat xizmati tizimida manfaatlar to'qnashuvini hal qilishga vakolatli subyektlar korpusini joriy etish, kompleks nazorat tuzilmalari bo'yicha yagona normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish taklifi berildi;

davlat fuqarolik xizmatchisini ishga qabul qilishda deklaratsiya to'ldirish tartibini belgilash, bunda deklaratsiya to'ldirishdan bo'yin tovlash uni xizmatga qabul qilishni rad etishga asos bo'lishi asoslantirildi;

qarindosh-urug'chilik va boshqa tashkilotlarda birga ishlaganlik holatini aniqlashda FHDY organlari reyestri, my.gov.uz portali, davlat xaridlari yagona elektron bazasi, Yagona milliy mehnat tizimi, Argos elektron tizimlari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish taklifi ilgari surildi;

korrupsion xavflarni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimini ishga turshirish, investitsiya, grant va loyihalarni manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha jamoatchilik va huquqiy ekspertizasidan o'tkazish zarurligi asoslantirib berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olinganligi, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Ma'muriy huquq", "Davlat xizmati", "Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleks nazorat", "Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish" kabi fan, modul va kurslarni o'qitish, shuningdek ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikni davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilash zarurligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari 2-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 8-apreldagi 12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qilgan;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga biron-bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtai nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlari ifoda etilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozimligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari 2-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 8-apreldagi 12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar mazmunida manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradigan normalarning bo‘lishini oldini olishga xizmat qilgan;

tashkilotlarning komplaens nazorat bo‘linmalari (yoki ushbu vazifa yuklatilgan mas‘ul shaxs) xizmat safariga yuborilgan xodimlarni manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarga yo‘l qo‘ymasliklari ustidan doimiy nazorat olib borishga mas‘ul hisoblanishi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to‘g‘risidagi nizomning 25-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 8-apreldagi 12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi xizmat safariga yuborilgan xodimlarni manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarga yo‘l qo‘ymasliklari ustidan nazorat olib borish mexanizmlarini yaratishga xizmat qilgan;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlarini, shuningdek ularning aksiyalari yoki ulushlariga egalik qilayotgan yoxud tizimida ishlayotgan yuridik shaxslarni davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar sifatida belgilash lozimligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni 5-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024-yil 24-iyuldagi 04/7-10-78-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi nafaqat davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi faoliyatida, balki unga aloqador shaxslar faoliyatida ham manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlarning oldini olishga xizmat qilgan;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya tartibini joriy etish, deklaratsiyani taqdim etish tartibini qonunchilikda belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirishni tashkilotlardagi maxsus bo‘linmalar zimmasiga yuklash zarurligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni 18-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasining 2024-yil 24-iyuldagi 04/7-10-78-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya tartibini joriy etish, deklaratsiyani taqdim etish tartibining huquqiy asoslarini yaratishga xizmat qilgan;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish, o‘zini o‘zi rad etish yoki

majburan chetlashtirish, lavozimiga teng boshqa lavozimga o'tkazish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish kabi choralarni manfaatlar to'qnashuviga oid holatlar yuz berganda qo'llaniladigan choralar sifatida belgilash kerakligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni 21-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasining 2024-yil 24-iyuldagi 04/7-10-78-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyat yuzaga kelsa, uni qanday hal qilish mexanizmlarini yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik (hammualliflikda), Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta (9 ta respublika va 2 ta xorijiy nashrlarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda olimlar va yetakchi huquqiy maktablar doktrinal qarashlari asosida zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida davlat fuqarolik xizmatining ilmiy-nazariy asoslari, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining yuridik tabiatini tushunish bo'yicha doktrinal qarashlar va manfaatlar to'qnashuvining turli ko'rinishlarini tavsiflash bo'yicha ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan.

Jumladan, tadqiqot ishida samarali va natijaga asoslangan ixcham "mobil boshqaruv apparati"ni yaratish borasidagi ma'muriy-huquqiy islohotlar tahlili amalga oshirilib, ijro etuvchi hokimiyat organlari tuzilmasi, soni va asosiy vazifalari, davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomi belgilanganligi, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining soni **61 tadan 28 tagacha**, shu jumladan vazirliklar soni **25 tadan 21 tagacha** qisqartirilganligi keltirib o'tilgan.

Tadqiqotchi tomonidan davlat boshqaruvi nazariyasida asosiy model va tizimlar sifatida *Anglo-sakson (minimal davlat)*; *German (organizm)*; *Fransuz (bonopartizm yoki napoleonizm)* va *Skandinaviya (anglo-sakson va german an'analarining aralashmasi)* konsepsiyalari rivojlanganligi qayd etilib, xulosa sifatida bugungi kunda zamonaviy davlat boshqaruvini amalga oshirishda ikkita boshqaruv konsepsiyasi – **“New Public Management”** va **“Good Governance”** muhim ahamiyat kasb etayotganligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot ishida milliy olimlardan **M.Axmedshayeva, A.Saidov, O.Xusanov, R.Xakimov, A.Bekmurodov, B.Mirboboyev, B.Alimov, X.Xayitov, Sh.Asadov** va boshqalar tomonidan mamlakat rivojida zamonaviy davlat boshqaruviga doimo ehtiyoj mavjudligi qayd etilishi, bu borada ixcham davlat boshqaruvi tizimi, davlat funksiyalarini fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish, nomarkazlashtirish, elektron davlat xizmatlari, jamoatchilik va parlament nazorati masalalari davlat boshqaruvini takomillashtirishda asosiy elementlar sifatida aytib o'tiladi.

Muallif davlat boshqaruvi masalasida xulosa qilgan holda ***zamonaviy davlat boshqaruvini*** *ixcham va natijaga asoslangan, vazifa va funksiyalar davlat va nodavlat sektor o'rtasida mutanosib va aniq taqsimlangan, markazlashishdan qochgan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda fuqarolarning faol ishtirokini nazarda tutadigan boshqaruv aparatini tashkil etadigan faoliyat turi* sifatida ta'riflaydi. Tahlillar natijasida **zamonaviy virtual davlat boshqaruvi** tizimini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga solish zaruratini aytib o'tadi.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmati ustida ilmiy izlanishlar olib borib, davlat fuqarolik xizmati huquqiy jihatdan mamlakatda yangi institut hisoblansa-da ilmiy yoki faoliyat nuqtai nazardan ancha yillardan beri mavjudligini qayd etadi. Shakllangan ilmiy maktablarga ko'ra, **B.M.Lazarev, A.P.Alexin, V.M.Manoxin, Y.A.Tixomirov, E.E.Duysenov, Y.M.Kozlov, A.V.Obolonskiy, Y.N.Starilovlar** davlat xizmatiga davlat organlarida davlatning funktsiya va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan, maosh evaziga bajariladigan faoliyat sifatida ta'rif berishgan bo'lsa, milliy olimlardan **E.Bazarbay, U.Tojixanov, A.A.Li, E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, shuningdek M.A.Raximov**lar davlat xizmatini kasbiy faoliyat turining bir ko'rinishi sifatida tadqiq etishgan. Boshqa yana bir ilmiy maktab olimlari – **E.T.Xojiyev, N.Sh.Said-Gaziyeva, B.Sh.Mirboboyev va X.T.Azizov** kabilarning qarashlarida esa davlat xizmati mehnat faoliyati ekanligi e'tirof etilgan.

Ilmiy nazariy jihatdan “fuqarolik xizmati” tushunchasiga e'tibor berilganda, jahon amaliyotidagi **“public service”** (“ommaviy xizmat”), **“civil service”**, (“fuqarolik xizmati”) **“government service”** (“hukumat xizmati”) atamaları bu bilan bevosita bog'liqdir, degan xulosaga kelingan.

Muallif tomonidan davlat fuqarolik xizmatiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan:

davlat fuqarolik xizmati – *bu muayyan haq evaziga davlatning asosan ijro etuvchi hokimiyati tarmog'idagi funktsiya va vazifalarini bajarishga qaratilgan davlat xizmatining bir turi bo'lgan kasbiy faoliyat hisoblanadi.*

Shuningdek, “Davlat fuqarolik xizmati tog'risida”gi Qonunni qo'llashda kamchiliklar mavjudligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinib, bu borada davlat fuqarolik xizmatchilarining toifalarini aniqlash – **Davlat fuqarolik**

xizmatchilarining yagona reyestrini qabul qilish zarurati asoslab berilgan. Davlat fuqarolik xizmati sohasida shakllangan kichik tajriba sohani takomillashtirishda tashkiliy va huquqiy jihatdan ehtiyojlar borligini ko'rsatib berganidan kelib chiqib, kadrlar bilan ishlashning yagona va yaxlit tizimini joriy etish, kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash, ishga qabul qilish, gender tengligi, odob-axloq qoidalariga amal qilish va uning monitoringi, mehnatga haq to'lashning adolatli va zamonaviy mexanizmlarini (**AQSh, Koreya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Singapur, Germaniya** tajribasi, alohida KPI shartlari asosida – **Singapur** va **Koreya** tajribasi) joriy etish dolzarbli asoslab berilgan.

Tadqiqotchi dissertatsiyada sohani takomillashtirishda bugungi kunda huquqiy bo'shliq bo'lgan davlat fuqarolik xizmati tatbiq etiladigan **tashkilotlarining ro'yxatini** belgilash, tizimga ishga qabul qilish yuzasidan **tanlov o'tkazish tartibini** huquqiy tartibga solish, **kadrlar zaxirasini shakllantirish** tartibini ishlab chiqish, davlat fuqarolik xizmatchilarining **uzluksiz malakasini oshirish tartibini** normativ tartibga solish lozimligini asoslab bergan.

Tadqiqot ishida manfaatlar to'qnashuvi **ilmiy-doktrinal, milliy-huquqiy** va **xalqaro-huquqiy** jihatdan tahlil qilinib, ilmiy doirada 2 ta katta maktab shakllanganligi ko'rsatiladi:

Birinchi maktab vakillariga (S.S.Frolov, A.Dementiev, P.F.Druker, A.G.Zdravomyslov, A.F.Nozdachev, V.Urey, J.Holliday, C.Weisman, X.Xekxauzen, A.K.Zaytsev, M.Kalandarova va boshqalar) ko'ra, manfaatlar to'qnashuviga neytral ma'noda, ya'ni har doim ham zararli oqibatlar keltirib chiqarmaydigan holat sifatida qaraladi;

Boshqa maktab vakillari (B.Turvey, A.Ilyakov, D.Dedov, A.Solovev, N.Axmetova, B.Axrоров, B.Ismailov, N.Said-Gaziyeva, G.Murodullayeva) esa uning ijtimoiy zarari haqida gapirib, mamlakat rivoji uchun har doim zararli deb hisoblashadi.

Shuningdek, ba'zi maktab vakillari (**B.Ismailov, G.Murodullaeva, B.Axrоров, A.Bo'riyev, M.Florin, F.Zibold, O.Panina, K.Xarchenko, A.Nozdachev, A.Ilyakov, N.Krasyukova D.Dedov va boshqalar**) manfaatlar to'qnashuvini alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rish va tahlil qilish, o'rganish zarur emas deb hisoblashadi. Ularning fikrlariga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi korrupsiya ifodalaydigan holatni anglatadi va bu jarayonni korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Boshqa olimlar guruhi (**K.Tojiboyev, R.Zufarov, M.Rustamboyev, G.Sattarov, M.Kalandarova, N.Said-Gaziyeva, B.Voljenkin, N.Kuznetsova, H.James, va boshqalar**) esa manfaatlar to'qnashuvini alohida obyekt sifatida ko'rib, uni korrupsiyadan mutlaqo farq qiladigan, uning bir ko'rinishi bo'lsa-da, huquqiy tartibga solish va oldini olish, bu borada maxsus mexanizmlarni joriy etishga alohida munosabat va e'tibor bilan qarashadi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Korrupsiyaga qarshi Akti, Mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi, Davlat fuqarolik xizmatchilari Akti** xalqaro darajada manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishga xizmat qilgan bo'lsa, tadqiqot obyekti milliy huquq doirasida "**Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi, "**Davlat fuqarolik**

xizmati to‘g‘risida”gi va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlar bilan tartibga solinganligi qayd etiladi.

Muallif tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va uning ko‘rinishlariga ilmiy-nazariy jihatdan quyidagi ta‘riflar ilgari suriladi:

manfaatlar to‘qnashuvi – bu shaxsning o‘z funksional xizmat vazifalarini o‘zi yoki o‘zi uchun aloqador shaxslar manfaatlari yo‘lida bajarishi yoki bajarmasligi natijasida o‘zi yoki o‘zi uchun aloqador shaxslar bilan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari o‘rtasida yuzaga kelgan, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshilik tusidagi vaziyatdir.

mavjud (real) manfaatlar to‘qnashuvi – bu shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta‘sir ko‘rsatgan (ko‘rsatayotgan) hamda o‘z manfaatdorligi bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan (kelayotgan) vaziyat hisoblanadi;

ehtimoliy (potensial) manfaatlar to‘qnashuvi – bu shaxsning shaxsiy manfaatdorligi kelajakda uning o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yoki shunday xavf (risk)ni yuzaga keltiradigan hamda o‘z manfaatdorligi bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan (kelishi mumkin bo‘lgan) vaziyat hisoblanadi;

Dissertant tadqiqot ishida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq qator ko‘rinishlarni tahlil qilib, ularni aniq chegaralab bo‘lmasligini, u shaxsiy manfaatdorlik natijasida xizmat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq har qanday vaziyatda yuzaga kelishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Lekin shunday bo‘lsa-da, manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan **nepotizm, favoritizm, lobbizm, traybalizm, kronizm va patronaj** kabi ko‘rinishlar ommalashganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, **urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, proteksionizm, guruhbozlik** kabi ko‘rinishlar mazmunini ham bevosita manfaatlar to‘qnashuvining asosi bo‘lgan noqonuniy shaxsiy manfaatdorlik tashkil etadi.

Shuningdek, huquqshunos olimlar R.Zufarov va B.Axrarovlar korrupsiyaning bugungi kunda keng tarqalgan **maishiy** (*tanish-bilish, qarindoshlik, o‘zaro yon bosish, yordam berish*), **ish yuzasidan** (*davlat hokimiyati va biznes vakillari o‘rtasidagi*), shuningdek **yuqori hokimiyat organlari tomonidan sodir etiladigan korrupsiya** (*oliy mansabdor shaxslar tomonidan shaxsiy manfaat yo‘lida sodir etiladi*) va **raqamli (kiber) korrupsiya** turlarini ham qayd etib o‘tadilar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning huquqiy jihatlari” deb nomlanib, uning doirasida** davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan qonunchilik asoslari tahlili, davlat fuqarolik xizmatchilarining davlat xaridlari bilan bog‘liq munosabatlarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy jihatlari atroflicha tahlil qilingan.

Mazkur bob doirasida, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan qonunchilik asoslari tahlili 3 davrga (**1991-yildan 2008-yilgacha; 2008-yildan 2017-yilgacha; 2017-yildan bugungi kungacha**) bo‘lgan holda tahlil qilindi. Qator normativ-huquqiy hujjatlardagi huquqiy bo‘shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Davrlar kesimidan kelib chiqib, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlanishiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, 1- va 2-davrlarda manfaatlar to‘qnashuvi kichik bir normalarda belgilangan va normativ-huquqiy hujjatlar soni **10ga** ham yetmagan. 3-davrda esa mamlakatida manfaatlar to‘qnashuviga jiddiy huquqiy muammo sifatida qaralib, maxsus tartiga solish amaliyoti shakllangan. So‘nggi 6-7 yilda **60ga yaqin** normativ-huquqiy hujjatlarda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan qoidalar belgilangan.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan qonunchilik asoslari tahlili yuzasidan 2024-yil holatga ko‘ra lex.uz saytida mavjud **80ga yaqin** normativ-huquqiy hujjatlarda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga oid normalar belgilanganligi faoliyatni tartibga solish ancha tarmoqlashganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mazkur bob doirasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunlarda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatda qabul qilingan qaror va tartib-taomillarni bekor qilish yoki o‘zgartirishga oid talablarni aks ettirishni nazarda tutadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish zarurligi asoslantirildi.

Davlat xaridlari tizimidagi manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini munosib tartibga solish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnoma, buyruq va boshqa hujjatning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida taqdimnoma yoki uni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha sudga da’vo kiritish vakolatini berish yuzasidan tegishli qonunlarga o‘zgartirish kiritish, bu borada tegishli tartibda sudga ariza berish, bu jarayonda davlat bojidan ozod qilish, ma’muriy bayonnomalar tuzish vakolatini berish, **“Davlat nazorati to‘g‘risida”gi qonun** loyihasini ishlab chiqish masalalari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotchi *korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo‘yicha cheklist* bilan bog‘liq huquqiy tajribani *davlat fuqarolik xizmatchilari bilan tuziladigan mehnat shartnomasi, vazifa va vakolatlarda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq risklarni aniqlash faoliyatiga* ham tatbiq etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keladi.

Muallif bir xil amaliyotni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonuni 19-moddasini *mavjud manfaatlar to‘qnashuvi va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi* kategoriyalari hamda *monitoring va javobgarlik asoslari* bilan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasini esa manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda xodim nafaqat rahbariga balki **yuqori**

turuvchi davlat organiga ham ma'lum qilishiga oid norma bilan to'ldirish, maqsadga muvofiqligini qayd etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida dissertant davlat fuqarolik xizmatchilarining davlat xaridlari bilan bog'liq munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlariga alohida etibor qaratib, ilmiy-nazariy va tashkiliy-huquqiy jihatdan batafsil tahlilni amalga oshirgan. Davlat xaridlarining ahamiyatiga to'xtalib, birgina O'zbekistonda 2022-yil davomida davlat xaridlari orqali **1.5 milliarddan ortiq** shartnoma tuzilganligi, bu loyihalarning umumiy qiymati **200 trillion so'mdan** oshishini, shuningdek asossiz to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish (833 ta), qimmat narxda tovar sotib olish (353 ta), **manfaatlar to'qnashuvi (253 ta) holatlari** yuz berganligini, davlat xaridining 46 foizi (115 trillion so'm) tanlov va tenderlarsiz, to'g'ridan to'g'ri shartnoma orqali amalga oshirilganini misol sifatida keltirgan. Shuning uchun mazkur jarayonda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalasi juda dolzarb ekanligi tadqiqotda qayd etilgan.

Bundan tashqari, dolzarblikni asoslashda quyidagi raqamlar keltirib o'tilgan:

2023-yilning fevral oyida vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilgan **4.35 trln. so'mlik 77 411 ta** xaridlarda jami **25 mlrd. so'mlik** qonunbuzilish holatlari yuzasidan buyurtmachilarga **26 ta** taqdimnoma kiritilgan. Kiritilgan taqdimnoma va so'rovnomalar natijasida 12 ta davlat xaridi bekor qilingan hamda 7 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Bevosita tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 2021-yil va 2022-yilning 5 oyi davomida **429,3 mlrd. so'mlik 5 805 ta davlat xaridlarida** manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuz bergan.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot natijasida ushbu sohada quyudagi tavsiyalarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha xulosaga kelingan:

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish, Jinoyat kodeksida bu bilan bog'liq **norma kiritish**;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan kelishuv va bitimlarni bekor qilish, o'zgartirishga oid maxsus normalar belgilanmaganligi sababli 44-moddasini "*Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan holda davlat xaridlari tartib-taomili amalga oshirilganda davlat organi yoki maxsus vakolatli organ jarayonning istalgan bosqichida davlat xaridini bekor qilishi mumkin*" degan norma bilan to'ldirish;

sohani tartibga solishga bevosita mas'ul bo'lgan **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organi**ni tuzish;

noqonuniy deb topilgan davlat xaridlarini **ommaviy e'lon qilib borish**.

Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda **jamoatchilik nazoratini** amalga oshirishning huquqiy jihatlarini tadqiqotda muhim o'rin egallagan.

Har yili birgina Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan OAV vakillari tomonidan e'lon qilingan va kelib tushgan murojaatlar asosida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish yuzasidan o'rtacha **25-30 ta** taqdimnoma kiritiladi. Boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hisoblaganda **100 dan** ziyod OAV xabarlarini asosida huquqbuzarliklar aniqlanadi. Birgina bugungi kunda

mashhur ommaviy axborot vositasiga aylangan kun.uz saytida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq **50 ga yaqin** material e‘lon qilingan. Mazkur ko‘rsatkichlar ham manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda jamoatchilik nazoratining ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Muallif manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda jamoatchilik nazoratining o‘rni va ahamiyatini aniqlashda qator ilmiy olimlar, xususan, R.Hakimov, Sh.Yakubov, F.Otaxonov, E.Xojiyev, G.Ismailova, M.Raximova, B.Ismailov, M.Axmedshayeva, J.Abdullayev, A.Dadasheva, B.Narimanov, G‘.Mamatov, Sh.Eshimov, Sh.Mavlyanov, Sh.Kulturaev, M.Mamasiddiqov, A.Otajonov, X.Muxamedxodjayeva, G.Nurmuxammedova, G.Murodullayeva, V.Grib, G.Chebotareva, A.Lapshina, T.Xabriyeva, S.Roganov, V.Fedorov, A.Dalgatova, V.Saetgaraev, M.Shediy, S.Taxoeva, Y.Matveychuk, V.Yuritsin, T.Roganova, M.Vaxitina, A.Shalamova, N.Chernogor, A.Shulikov kabi xorijiy olimlar tadqiqotlariga murojaat qilgan.

Tadqiqotchi tomonidan “Ochiq parlament” (“**Open Parliament**”) doktrinasi, “**Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament va oliy nazorat organlarining roli to‘g‘risida**”gi tavsiyanoma, **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Ochiq hukumat bo‘yicha Parij deklaratsiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Kengashining “Davlat sektorida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha tavsiyalari”, Ommaviy halollik bo‘yicha kengashi tavsiyalari** kabi xalqaro hujjatlar asosida mavzu tadqiq etilib, qator tavsiyalar ilgari surilgan.

Jumladan, davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash (KPI) bo‘yicha aniq indikatorlarni belgilash va ularning bir turi sifatida **jamoatchilik nazorati shakllari asosida yig‘ilgan ma‘lumotlarga baho berishni** ham belgilash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning **korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq faoliyatini** jamoatchilik nazorati obykti sifatida belgilash, jamoatchilik nazorati yakunlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni **keng jamoatchilikka majburiy tartibda e‘lon qilish** kabi normalarni “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunga kiritish bo‘yicha tashabbuslar bildirilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berish amaliyotini ommalashtirish, xabar beruvchilarning tashkiliy va huquqiy himoyasini ta‘minlash maqsadida “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish zarurligi asoslantirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari**” deb nomlanib, unda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal qilishda cheklov mexanizmini qo‘llashning huquqiy jihatlari, manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish bo‘yicha vakolatli subyektlar hamda ularning huquq, majburiyat va faoliyat prinsiplari, shuningdek davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish yuzasidan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ilmiy-nazariy va tashkiliy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Jumladan, mazkur bobda bevosita **cheklovlar masalasi** manfaatlar to‘qnashuvini oldini oluvchi mexanizm hamda huquqiy kategoriya sifatida qator qonunchilik hujjatlari asosida tahlil qilingan. Ilmiy olimlarning fikrlari asosida *davlat xizmati bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlar deganda Konstitutsiya va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan, davlat xizmatchisining chiqishi man etilgan, huquq doirasida belgilangan shart va qoidalar tushunilishi* qayd etilgan.

Taqiq va cheklov masalalarida ilmiy-nazariy jihatdan quyidagicha mualliflik ta’riflari ilgari surilgan:

*«**taqiq** – bu davlat tomonidan maxsus normativ-huquqiy yoki ichki lokal hujjatlar asosida belgilangan, lavozim vazifalari va xususiyatlaridan kelib chiqib muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishni keskin taqiqlaydigan davlatning umummajburiy ko‘rsatmasidir»;*

*«**cheklov** – bu davlat xizmatchilari uchun davlat tomonidan maxsus normativ-huquqiy yoki ichki lokal hujjatlar asosida belgilangan, faqatgina muayyan tartib-taomil va me‘zonlar asosida vakolatlardan foydalanishning huquqiy chegarasini belgilovchi mexanizm hisoblanadi.*

Shuningdek, milliy qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish asosida **taqiq va cheklovlarning alohida ro‘yxatini** “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda alohida-alohida moddalarda belgilash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan. O‘zaro yaqin qarindoshlik asosida **bitta davlat fuqarolik xizmatida** ishlash, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tarihlarga zid ravishda **xorijiy mamlakatga chiqish**, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari **haq to‘lanadigan** boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish va **tadbirkorlik** faoliyati bilan shug‘ullanish, **sovg‘alar** olishni taqiqlash **masalasi** kabi cheklov choralari ilmiy-nazariy jihatdan baho berilgan. Bu boradagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yil davomida jami **1 625 nafar** davlat xizmatchilari davlat xizmati bilan birga rahbar yoki ta’sischi sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgani ya’ni **ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvga** yo‘l qo‘ygani Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari tomonidan aniqlangan.

Shundan kelib chiqib bu boradagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish, jumladan, **deklaratsiya tartibini** joriy qilish tashabbuslari bildirilgan.

Dissertant tomonidan korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish bo‘yicha vakolatli subyektlar doirasini aniqlashda ularni **umumiy va maxsus vakolatli** subyektlarga ajratish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelinib, quyidagi subyektlar toifalashtirilgan:

Maxsus vakolatli organlar:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Tadqiqotchiga ko'ra, **umumiy vakolatli organlar** toifasiga O'zbekiston Respublikasidagi barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarini, O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatida yagona kadrlar siyosatini boshqarishga bevosita mas'ul bo'lgan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlarini kiritish mumkinligi asoslantirilgan.

Bundan tashqari, subyektlar masalasida *Davlat fuqarolik xizmati organi, uning rahbari va davlat fuqarolik xizmatchisi; Davlat fuqarolik xizmati organida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish faoliyati bilan shug'ullanadigan tarkibiy bo'linmalar (kadrlar bo'limi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi va boshqa); Odob-axloq komissiyalari; Kompleans nazorat xizmati* hamda ularning *huquq va majburiyatlari* tadqiqot ishida alohida tahlil qilingan.

Tadqiqotchi manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda davlat fuqarolik xizmati organida tuzilgan **kompleans nazorat xizmatiga** alohida e'tibor qaratib, uning ahamiyatini quyidagi ma'lumotlar asosida ham asoslashga harakat qilgan.

Jumladan, statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, **“Baker and McKenzie”** xalqaro tashkilotining ma'lumotlarida mazkur davrga kelib **180 dan ortiq** mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi tatbiq etilganligi qayd qilingan. Milliy doirada esa **89 ta** davlat organlari va tashkilotlarida, shuningdek banklarda **1 350 nafar** shtatni o'z ichiga olgan kompleans nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilgan, ular faoliyatini tartibga solish bo'yicha **10 ta** idoraviy normativ huquqiy hujjat qabul qilingan. Shuningdek, mazkur xizmatlar tomonidan birgina 2022-yilda **66 ta** davlat tashkilotida o'tkazilgan o'rganish natijasida **3 101 ta** holatda **592.4 mlrd.** so'mdan ortiq moliyaviy qonunbuzilish holatlari aniqlangan.

Shundan kelib chiqib, faoliyati yo'lga qo'yilmagan davlat fuqarolik xizmati organlarida kompleans nazorat, axloq komissiyasi, kadrlar bo'limi, ichki inspeksiya yoki shu turdagi bo'limlarni tashkil etishni kechiktirmaslik, “kompleans nazorat” bo'yicha **yagona normativ-huquqiy hujjat** ishlab chiqish lozimligi bo'yicha xulosaga kelingan.

Dissertant davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha vakolatli subyektlarning faoliyat prinsiplari sifatida *davlat va jamoat manfaatlarining ustunligi, ochiqlik va shaffoflik, shaxsiy namuna, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi murosasizlik, xabar bergan shaxslarning huquqlarini va mahfiylikni ta'minlash* masalalarini muhokama qilib, ularning hal qilish jarayonidagi ahamiyatini ilmiy-huquqiy jihatdan asoslantirgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish yuzasidan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar tahlilida nazariy jihatdan **“manfaatlar to'qnashuvini oldini olish”, “manfaatlar to'qnashuvini boshqarish”, “manfaatlar to'qnashuvini aniqlash”, “manfaatlar to'qnashuvini hal qilish” va “manfaatlar to'qnashuvini huquqiy tartibga solish”** bilan bog'liq jumlar mavjudligi qayd etilgan.

Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish masalasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra (*Chikago universiteti Huquq maktabi professori Richard Epstein tadqiqoti*) manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda 2 ta katta model taklif etiladi: **birinchi model**

oldindan holatni baholash va oldini olish choralari ustuvorlik berish kerakligini nazarda tutsa, **ikkinchi modelning** mohiyatini jazolash mexanizmi orqali manfaatlar to‘qnashuvi holatini hal qilish mumkin.

Muallif tomonidan esa manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishda **“tashqi ko‘rinish standarti”**, **jamoatchilik yordamiga asoslanish**, **xususiy sektor bilan hamkorlik qilish**, **bozor mexanizmi asosida haq to‘lash** modellariga alohida ahamiyat qaratiladi. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotning **Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi**, **Yevropa Kengashining SM/Rec (2014) 7-tavsiyasi** va **“Axborot beruvchilar to‘g‘risida”gi Yevropa Ittifoqi Deriktivasi** asosida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va hal qilishda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berishga alohida ahamiyat qaratish lozimligi, bu borada ularning huquqiy himoyasini qonun bilan muhofazalash zarurligi bo‘yicha xulosaga kelingan.

Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyat yuzaga kelganda, uni hal qilish uchun qo‘llanadigan choralarda **o‘zini o‘zi rad etish instituti** markaziy o‘rinda turadi. Rad qilishning asosiy maqsadi esa ishni hal qilishda ishtirok etayotgan shaxsning qonun talablaridan, o‘z xizmat majburiyatidan o‘z manfaati yoki uchinchi shaxslar manfaati yo‘lida chetga chiqishi oqibatida fuqaroning huquq va manfaatlariga ziyon yetishini oldini olishga qaratilgandir. Lekin aynan rad qilish instituti amaliyotda har doim ham ishlamasligi bu borada huquqiy islohot va tashkiliy tadbirlarni, ijroni ta‘minlash mexanizmlarini joriy etishni talab etadi.

Shu jihatdan, qonun hujjatlarida rad qilish institutini takomillashtirishga oid normalarni belgilash, xususan, **“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi** qonunlarda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va munosib hal qilishga qaratilgan o‘zini o‘zi rad etish bilan bog‘liq normalarni aniq belgilash, ularning bajarilish kafolatini esa Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga **rad qilish instituti bilan bog‘liq majburiyatlarga amal qilmaganlikka nisbatan javobgarlik choralari**ni kiritish orqali ta‘minlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlanib, unda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan odob-axloq va etika standartlari bilan bog‘liq zamonaviy konsepsiya va modellarni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi, avvalo, quyidagi modellar asosida tahlil qilingan:

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning Osiyo modeli;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning o‘tish davri modeli;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning kontinental modeli;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning anglo-sakson modeli.

Xususan, **kontinental model** mohiyatiga ko‘ra manfaatlar to‘qnashuvi maxsus davlat munosabatini nazarda tutadi, maxsus qonunchilik va asosan qonunosti (idoraviy) hujjatlar bilan tartibga solishni ifoda etadi. Modelni o‘zida samarali qo‘llagan mamlakatlar sifatida esa **Germaniya, Yaponiya, Fransiya** mamlakatlarini qayd etish mumkin.

Anglo-sakson modelida esa manfaatlar to‘qnashuvi axloq, huquq va adolat, qonun prinsiplari asosida aniqlanishi, oldi olinishi va tartibga solinishini nazarda tutadi. Ushbu model qonunlarda mustahkamlangan va vaziyatlar kesmida o‘zini tutish qoidalari, xulq-atvor standartlari bilan tavsiflangan. Bu modelni rivojlantirgan va samarali qo‘llagan mamlakatlar sifatida esa **AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya** kabi mamlakatlarni ko‘rsatish mumkin. **Osiyo va o‘tish davri modellarida** esa asosan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi islohotlarni o‘z ichiga olishi bilan xarakterlanadi.

Bundan tashqari, boshqa ayrim manbalarda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasida **Britaniya, Fransuz va Nordik modellari** ham rivojlanganligi qayd etib o‘tilgan. Xususan, **Britaniya modeli** tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda (*Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya*) manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish masalalari, davlat xizmatchilarining xizmat faoliyatlarini olib borishlari yuqori darajadagi axloq, faoliyatga vijdonan yondashish, har qanday shaxsiy manfaatlar haqida e‘lon qilish yoki hisobot berish tendensiyasiga asoslanadi.

Keyingi keng tarqalgan model – **Fransuz modelining** asosiy xususiyati esa (*Fransiya, Italiya, Polsha, Chexiya, Ispaniya*) ochiqlik va shaffoflik mexanizmiga asoslanadi. Uchinchi model – **Nordik modeli** esa alohida e‘tiborni talab etadi. Jumladan, bugungi kunda davlat boshqaruvini samarali tashkil etish va farovonlikni ta‘minlash, korrupsiya va uning turli ko‘rinishlariga qarshi kurashish masalasidagi qator xalqaro reyting va indekslarda mazkur model tarkibiga kiruvchi mamlakatlar (*Shvetsiya, Finlandiya, Norvegiya, Daniya*) yetakchilik qilmoqda. Mazkur modelning asosiy xususiyatlari mazmunan yuqoridagi ikkita modelning ham ijobiy jihatlarni o‘zida aks ettirganligi bilan xarakterlanadi.

Shu bilan bir qatorda, tadqiqotchi xorijiy mamlakatlar tajribasini quyidagi geografik tuzilish asosida tahlil qilgan:

Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanadaning manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga qaratilgan tajribasi;

Yevropa mamlakatlarining manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga qaratilgan tajribasi;

MDH va ayrim Osiyo mamlakatlarining manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga qaratilgan tajribasi.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha **zamonaviy konsepsiya va modellar** (“*Davlat xizmatini amalga oshirishning 4 asosiy xulq-atvor standarti*”, “*Raqamli tartibga solish*”, “*Ichki tartibga solish va xabar berish*”, “*Jamoatchilik ishonchi*”, “*Ommaviy etika*”, “*Muammoni kompleks tartibga solish*”, “*Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha aniq davlat siyosati*”, “*Ta‘lim va hushyorlikni oshirish*”, “*Ochiq suhbat va ishonch*”) tahlil qilindi, ularni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari Buyuk Britaniya tajribasi asosida o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasining **korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiyasini** qabul qilish, keyingi yillardagi vazifalarni aynan mazkur strategiya doirasida tizimli, bosqichma bosqich davom ettirish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashda matbuot va so‘z erkinligi, OAV imkoniyatlaridan keng foydalanish, bu borada ularning tashkiliy va huquqiy himoyasini kuchaytirish, ayniqsa, xabar

beruvchilarning bu boradagi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus qonunni qabul qilish asoslantirildi.

Tadqiqotchiga ko'ra, mamlakatda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan islohotlar mazmuniga e'tibor berilsa, jazolash yoki oqibatlari bilan kurashish emas, oldini olish va barvaqt aniqlashga qaratilgan preventiv choralarini qo'llashga katta ahamiyat berilmoqda. Shu jihatdan, mamlakatda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashga qaratilgan **korrupsiya holatlarini dastlabki o'rganish – korrupsion surishtiruv institutini** joriy etish muhim hisoblanadi.

Korrupsion surishtiruv korrupsiya holatlarini tekshirish va ularni tasdiqlash yoki rad etish uchun ma'lumot to'plashdan iborat bo'lgan, tegishli subyektlar tomonidan vakolat doirasida holatni dastlabki o'rganish orqali amalga oshiriladigan, korrupsiyani barvaqt oldini olishga qaratilgan chora-tadbir hisoblanadi. Boshqacha aytganda, korrupsion surishtiruv holat yuz berishidan oldin tekshirish-o'rganish asosida olib boriladigan preventiv chora sanaladi. Mazkur tizim guvohlar bilan suhbatlashish, hujjatlar va yozuvlarni olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va tegishli shaxslar faoliyatini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchilik hujjatlari, jumladan, **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi** va **“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonunlariga korrupsion surishtiruv institutini kiritish**, ularni amalga oshirish mexanizmlari va subyektlar doirasini belgilash, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va davlat fuqarolik xizmati organlaridagi maxsus ichki tuzilmalarga korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini dastlabki aniqlash – korrupsion surishtiruv bilan bog'liq aniq vakolatlarni berish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keladi.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan **milliy halollik standarti** (*Public integrity*) institutini joriy etish ham muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mazkur institutni korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini tartibga soladigan hujjatlarda huquqiy norma sifatida belgilash, ishlab chiqilgan standart asosida halollik darajasini baholaydigan **Milliy halollik indeksi** ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu borada davlat fuqarolik xizmatchilarining yillik reytinglarini yuritib borish, ular faoliyatiga baho berish va yuqori lavozimlarga tayinlashda inobatga olish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishida ***davlat fuqarolik xizmatchilari bilan bog'liq yuzaga kelayotgan nizolarning sudga tegishli va taalluqliligi masalasida*** yagona amaliyot yo'q bo'lib, ilmiy olimlar va amaliyotchi-mutaxassislar o'rtasida ham turli fikrlar borligi qayd etib o'tiladi. Masalaning huquqiy yechimi sifatida esa, avvalo, **“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonun tatbiq etiladigan sohalar (tashkilotlar)ni belgilash** (*“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonun tatbiq etiladigan tashkilotlar belgilangan amaliyot kabi*), shuningdek **Davlat fuqarolik xizmatchilarining yagona reyestrini** qabul qilish orqali hal qilinishi lozimligi, shu bilan bir qatorda, bugungi kunda davlat fuqarolik xizmati va mehnat qonunchiligining tartibga solish doirasi masalasida ham qator holatlar yuzaga kelayotganligi sababli bu borada **sudlar tomonidan davlat fuqarolik xizmati sohasi bilan bog'liq qonunchilikni qo'llash amaliyoti bo'yicha Oliy sud Plenumi qarorini qabul qilish** maqsadga muvofiqligi asoslantiriladi.

Tadqiqotchi fikricha, davlat fuqarolik xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi emas, *xizmat shartnomasi* tuzilishi kerak va unda qonunda belgilanganidek, mehnat shartnomasi kabi umumiy qoidalar emas, o'ziga xos va alohida (*rotatsiya, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan, cheklov instituti bilan bog'liq bo'lgan*) qoidalar nazarda tutilishi kerak.

Shu bilan birgalikda, mazkur bob yakunlariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelingan:

Davlat fuqarolik xizmatchilarini rotatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomni qabul qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan respublika hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo'lishga, ko'chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilish masalalarini tartibga soladigan **maxsus normativ huquqiy hujjat qabul qilish**;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjati asosida **martaba darajalarini berish tartibini**, shuningdek bugungi kunda huquqiy bo'shliq bo'lgan davlat fuqarolik xizmatchilarining **attestatsiyasi jarayonlarini** qonunchilikda aniq belgilash;

“O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi to'g'risida”gi Qonunni qabul qilish.

Dissertatsiyada dunyo va mahalliy doirada manfaatlar to'qnashuvini munosib tartibga solish bo'yicha shakllanayotgan ustuvor yo'nalishlar, konsepsiya va modellar, shuningdek tashkiliy-huquqiy asoslardan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida tahlil qilish bo'yicha xulosaga kelingan:

manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha konsepsiya va modellar;

manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar;

manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar.

Tadqiqot davomida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda faoliyatni elektronlashtirish – raqamlashtirish siyosatini yangi bosqichga olib chiqish (*ishga qabul qilish jarayonida qarindosh-urug'chilik va boshqa tashkilotlarda birga ishlaganlik holatini aniqlab beradigan axborot tizimlari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish*), huquqiy ekspertiza masalasini takomillashtirish, korrupsion xavflarni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimini ishga tushirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalar, grant va loyihalarni manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha nazorat qilish va ekspertizasini tashkil etish, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish haqlari miqdorini oshirish hamda daromad va mol-mulkni deklaratsiya qilish tartibini yo'lga qo'yish masalalari asoslab berildi;

Ishga yangi qabul qilingan davlat fuqarolik xizmatchilarini har 6 oyda, amalda ishlab kelayotgan xizmatchilarni esa har 3 yilda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan maxsus malaka oshirish kurslaridan majburiy o'tish tartibini joriy qilish, bunda davlat xizmatiga ishga kirish oldidan esa

nomzodlarni mazkur kursdan o‘tganlik sertifikatiga ega bo‘lish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi;

Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishda keng jamoatchilik vakillari, shu jumladan, mustaqil baholovchilarni doimiy jalb etib borish, jamoatchilik ekspertizasini o‘tkazish, xalqaro tashkilotlarning korrupsiyadan holi tizim bo‘yicha maxsus sertifikatlarini olish amaliyotini joriy etishni maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

Umuman olganda, tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish nafaqat ilmiy jihatdan asoslangan zamonaviy konsepsiya va modellarni tahlil qilish va amaliyotga kiritishni, balki unga parallel ravishda milliy qonunchilik asoslarini takomillashtirib, undagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etishni, tashkiliy tadbirlarni ko‘rish ham kerak, deb hisoblaydi. Mazkur ajralmas mexanizm asosida faoliyatni muntazam takomillashtirib borish mamlakat huquq tizimida, xususan, davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini munosib tartibga solish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari sifatida qator qonun hujjatlarining konsepsiyalari (**1-2-ilovalar**), xabarnoma, deklaratsiya namunalari (**3-ilova**), Davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvi va maxfiylik kelishuvi (**4-ilova**), Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining umumiy standartlari (**5-ilova**), Manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlari (**6-ilova**), Davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va baholash metodikasi (**7-ilova**) ilova qilingan.

Tadqiqot ishida muhokama qilingan ilmiy-nazariy xulosa va tashkiliy-huquqiy asoslardan kelib chiqib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

XULOSA

“Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1.1. Dunyoda shakllanayotgan zamonaviy, “**aqlli boshqaruv**” modellari, konsepsiya va yondashuvlar (*Anglo-sakson, German, Fransuz, Skandinaviya modellari*) tahlil qilinib, bugungi ommalashgan va qator davlatlar namuna sifatida olayotgan “**New Public Management**” va “**Good Governance**” modellarini O‘zbekistonda faol qo‘llash istiqbolli degan xulosaga kelindi;

1.2. “Fuqarolik xizmati” tushunchasi jahon amaliyotidagi “**public service**” (“ommaviy xizmat”), “**civil service**” (“fuqarolik xizmati”), “**government service**” (“hukumat xizmati”) faoliyat yo‘nalishlari asosida tahlil etilib, “**Raqamli davlat xizmati**”ni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-nazariy xulosaga kelindi;

1.3. Davlat fuqarolik xizmatidagi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq **nepotizm, favoritizm, lobbizm, traybalizm, kronizm va patronaj, urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, proteksionizm, guruhbozlik** kabi ko‘rinishlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi;

1.4. Davlat fuqarolik xizmati tatbiq etiladigan tashkilotlarining **ro‘yxatini belgilash**, tizimga ishga qabul qilish yuzasidan **tanlov o‘tkazish tartibini** huquqiy

tartibga solish, **kadrlar zaxirasini shakllantirish** tartibini ishlab chiqish, davlat fuqarolik xizmatchilarining **uzluksiz malakasini oshirish** tartibini normativ tartibga solish lozimligi bo'yicha ilmiy-nazariy xulosaga kelindi;

1.5. Tadqiqot ishi bilan bog'liq quyidagi ilmiy-nazariy tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi:

a) zamonaviy davlat boshqaruvi – ixcham va natijaga asoslangan, vazifa va funksiyalar davlat va nodavlat sektor o'rtasida mutanosib va aniq taqsimlangan, markazlashishdan qochgan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda fuqarolarning faol ishtirokini nazarda tutib, boshqaruv apparatini tashkil etadigan faoliyat turidir;

b) davlat fuqarolik xizmati – bu muayyan haq evaziga davlatning asosan ijro etuvchi hokimiyati tarmog'idagi funksiya va vazifalarini bajarishga qaratilgan davlat xizmatining bir turi bo'lgan kasbiy faoliyat hisoblanadi;

c) manfaatlar to'qnashuvi – bu shaxsning o'z funksional xizmat vazifalarini o'zi yoki o'zi uchun aloqador shaxslar manfaatlari yo'lida bajarishi yoki bajarmasligi natijasida o'zi yoki o'zi uchun aloqador shaxslar bilan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari o'rtasida yuzaga kelgan, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik tusidagi vaziyatdir;

d) mavjud (real) manfaatlar to'qnashuvi – bu shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatgan (ko'rsatayotgan) hamda o'z manfaatdorligi bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan (kelayotgan) vaziyat hisoblanadi;

e) ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi – bu shaxsning shaxsiy manfaatdorligi kelajakda uning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yoki shunday xavf (risk)ni yuzaga keltiradigan hamda o'z manfaatdorligi bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan (kelishi mumkin bo'lgan) vaziyat hisoblanadi;

f) manfaatlar to'qnashuvi ustidan jamoatchilik nazorati – bu jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolati berilgan subyektlar tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, davlat fuqarolik xizmati organlari hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan tashkilotlarda xizmat qiluvchi shaxslar faoliyatida shaxsiy manfaatdorlik asosida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olishi va hal qilish jarayonlari ustidan olib boriladigan nazorat turi;

g) taqiq – bu davlat tomonidan maxsus normativ-huquqiy yoki ichki lokal hujjatlar asosida belgilangan, lavozim vazifalari va xususiyatlaridan kelib chiqib muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishni keskin taqiqlaydigan davlatning umummajburiy ko'rsatmasi;

h) cheklov – bu davlat xizmatchilari uchun davlat tomonidan maxsus normativ-huquqiy yoki ichki lokal hujjatlar asosida belgilangan, faqatgina muayyan tartib-taomil va me'zonlar asosida vakolatlardan foydalanishning huquqiy chegarasini belgilovchi mexanizm;

1.6. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha subyektlar **umumiy va maxsus vakolatli** subyektlarga ajratildi, ularning huquq va majburiyatlari *davlat fuqarolik xizmati organi, davlat fuqarolik*

xizmatchisi, xizmatchining yaqin qarindoshlari va unga aloqador shaxslar, Odob-axloq komissiyasi yoki maxsus bo‘linma kesimida tahlil qilindi;

1.7. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan qonunchilikning rivojlanishi **1991-2008-yillar, 2008-2017-yillar, 2017-yildan bugungi kungacha bo‘lgan davrlar** asosida tahlil qilinib, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga oid qonunchilik 2017-yilgacha tarqoq holda rivojlanganligi, holatni tartibga solish bo‘yicha bevosita maxsus munosabat so‘nggi 6-7 yilda rivojlanganligi, bu davrda **60 ga yaqin** huquqiy asoslar yaratilganligi asoslantirildi;

1.8. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan faoliyat prinsiplari *davlat va jamoat manfaatlarining ustunligi, ochiqlik va shaffoflik, shaxsiy namuna, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga qarshi murosasizlik, xabar bergan shaxslarning huquqlarini ta‘minlash, xolislik, axborotni oshkor qilishning shartligi, manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha profilaktik choraning ustuvorligi, javobgarlik va jazoning muqarrarligi* prinsiplari kesimida nazariy jihatdan tahlil qilindi;

1.9. Tadqiqot bilan bog‘liq **“manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish”, “manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish”, “manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash”, “manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish”** va **“manfaatlar to‘qnashuvini huquqiy tartibga solish”** tushunchalarining ilmiy-nazariy tahlili amalga oshirildi;

1.10. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning *Osiyo, o‘tish davri, kontinental va anglo-sakson hamda Britaniya, Fransuz va Nordik, High Road (qiyin yo‘l) va Law Road (qonun yo‘li)* modellari tahlil qilindi, geografik nuqtai nazardan *Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanada; Yevropa mamlakatlari; MDH va Osiyo mamlakatlari* tajribasi o‘rganildi, ularning ijobiy va salbiy jihatlari asosida milliy huquq tizimini rivojlantirish borasida ilmiy xulosalarga kelindi;

1.11. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha **zamonaviy konsepsiya va modellar** (*“Davlat xizmatini amalga oshirishning 4 asosiy xulq-atvor standarti”, “Raqamli tartibga solish”, “Ichki tartibga solish va xabar berish”, “Jamoatchilik ishonchi”, “Ommaviy etika”, “Muammoni kompleks tartibga solish”, “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha aniq davlat siyosati”, “Ta‘lim va hushyorlikni oshirish”, “Ochiq suhbat va ishonch”*) tahlil qilindi, ularni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari Buyuk Britaniya tajribasi asosida o‘rganildi.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

2.1. O‘zbekiston Respublikasining **korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiyasini qabul qilish**, keyingi yillardagi korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan vazifalarni mazkur strategiya doirasida tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish taklifi asoslantirildi;

2.2. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, davlat mablag‘lari nazoratini kuchaytirish, korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish va tizimda yagona boshqaruv tizimini yaratish maqsadida **“Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida”gi** qonunni qabul qilish zarurati asoslantirildi, **“O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi to‘g‘risida”gi** va **“Davlat nazorati to‘g‘risida”gi** qonunlarni qabul qilish taklif etiladi;

2.3. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi:

a) Qonunning 3-moddasidagi davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tushunchasiga berilgan ta’rifni quyidagi tahrirda bayon qilish:

*“davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi – davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan **“rahbar (boshqaruv) va mutaxassis xodimlar”**;*

b) Qonunning 8-moddasi 1-band sakkizinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish:

*“o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan, **shuningdek o‘ziga bo‘ysunuvchi yoki nazoratidagi** tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etishga haqli emas.”;*

2.4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi:

a) Qonunning 13-moddasini quyidagi cheklov chorasi bilan to‘ldirish:

“O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartiblarga zid ravishda xorijiy mamlakatga chiqishga”;

b) Qo‘sh lavozimda ishlash va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish hamda pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga oid belgilangan cheklovlar va konstitutsiyaviy prinsipning real ijrosini ta’minlash maqsadida Qonunning 13-moddasi uchinchi xatboshisidagi *“O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno”* degan jummalarni, shuningdek Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining Namunaviy qoidalaridagi *davlat fuqarolik xizmatchilari tadbirkorlik yoki haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkinligiga oid* istisnoni chiqarib tashlash;

